

**BOSHLANG'ICH SINFDA DIZARTRIYALI O'QUVCHILAR NUTQINING  
KOMPLEKS DIAGNOSTIKASI**

Utbasarova Umida Mexmanovna  
Alfraganus universiteti v.b dotsent PhD

Ochilova Dilduza Zayniddinovna  
KIUT logopediya yo'nalishi magistri

**Annotasiya:**

Ushbu maqolada dizartriya nitq kamchiligini har tomonlama kompleks tekshirish tadbirlari yoritilgan bo'lib, bu ma'lumotlar nitq kamchiligini aniqlash hamda to'gr'i logopedik xulosa berish imkonini yaratadi.

**Kalit so'z:** dizartriya, inervatsiya, tovush, ovoz, mushak, giper, gipotonus.

**Introduction**

Dizartriya-nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-bo'lak, arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi. Dizartriya-bu markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi. Dizartriyada nutq a'zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi.

Dizartriyaning og'ir formasida nutq butunlay tushunarsiz bo'ladi. Bunday hol anartriya deb ataladi. Anartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, a-yo'q, arthon – biriktirish degan ma'noni bildiradi. Dizartriyaning tasniflashda mutaxassislar turli xil yondashadilar: jarohatlanish o'chog'iga qarab, nevrologik simptomning ustunligi yoki neyrolingvistik qarashlar bo'yicha Ye.N. Vinarskaya (1973), K.N. Vittorf (1940), K.Vovatr (1966), L.A. Danilova (1969), M.Zeeman (1962), M.V.Ippolitova (1965), S.S. Lyapidevskiy (1968), Ye.M. Mastuykova (1985), I.I. Panchenko (1974), K.A. Semyonova (1979), M.B. Eydinova.

Ammo ko'pchilik mutaxassislar dizartriyaning tasniflashda jarohatlanish o'chog'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyaning quyidagi turlarga ajratadilar: bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartriya, qobiqli osti va miyachali dizartriya.

**Impressiv nutqni tekshirish metodikasi.** Dizartriyali o'quvchilarning impressiv nutqning rivojlanganlik holatini o'rganishda nutqni tushunish, passiv lug'at, fonematik tahlil holati tadqiq etildi.

**Fonematik tahlilni rivojlanganlik holatini tekshirish.** Fonematik eshitish buzilishlarini aniq o'rganish maqsadida, avvalo, o'quvchida qaysi jarayon keng shakllanmaganini aniqlash zarur. Bu dizartriyali o'quvchilarning fonematik eshitishini tekshirish uchun moslashtirilgan bo'lib, fonematik eshitishni shakllantirish shartlarini tekshirishga yo'naltirilgan qator topshiriqlardan

tashkil topgan. Nutq tovushlarini eshitib idrok qilishini tekshiruvdan oldin o'quvchini jismoniy eshitishini tekshirish natijalari bilan tanishish kerak.

Fonematik tahlil holatini tekshirish quyidagi topshiriqlarni o'z ichiga oladi: nonutqiy tovushlarni tanish; tovushlarni farqlash; tovush tarkibiga ko'ra yaqin so'zlarni farqlash; bo'g'inlarni farqlash; tovushlarni tahlil qilishning elementar ko'nikmalari.

**O'quvchilarning nonutqiy tovushlarni tanish darajasini o'rganish.** Ushbu bosqichning maqsadi o'quvchilarda nonutqiy tovushlarni tanish malakasini hosil qilishdan iborat qilib belgilandi. Aniq maqsad asosida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat muayyan metodik ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi. Texnologiya negizida to'rtta metodik ko'rsatmaga amal qilish kutilgan natijani qo'lga kiritish imkonini berdi.

Eshitish xotirasi va nutqni tushunishni tekshirishda o'quvchilardan topshiriqlarni aytilgan ketma-ketlikda qo'yish talab etildi.

**Oppozitsion tovushli bo'g'inlarni ajratish.** Bosqich quyidagi tovushlar qatoriga muvofiq amalga oshirildi: [b], [k], [sh], [t], [r], [sh], [g], [sh], [s], [z], [sh], [j], [ch], [r], [l], [k]; bo'g'inlar qatori: ba-pa, za-sa, ja-sha, ta-da, pa-ba, ga-ka, cha-ja. ra-la.

**Fonematik tahlil va sintezni tekshirish.** Bu boradagi pedagogik faoliyat quyidagilarga asoslandi: so'zlarda [sh] tovushini topish: shahar, mosh, qoshiq;

shamol, pashsha, xaskash, bosh so'zidagi tovushlar sonini va so'zda [sh] tovushining o'rnini aniqlash;

aytilgan tovushga mos so'zni topish: [sh], [s], [z]. Masalan, "Sh" tovushiga oid so'zlar – shar, shakar, Toshkent, beshik, qosh, kavush;

"S" tovushiga oid so'zlar – salom, sabzi, assalom, asal, Abbos, gilos; "Z" tovushi qatnashgan oid so'zlar – zina, zumrad, dazmol, ozoda, ovoz, qog'oz.

Taklif etilgan texnologiya fonematik tahlil holatini tekshirishning baholash mezonlarini ham o'z ichiga oldi (qarang 1-ilova).

**So'zlar, gaplarni tushunilish holatini tekshirish.** Defektolog-logoped o'quvchiga bir necha turdagi (tana qismlari, uy jihozlari, o'yinchoqlar, ko'chma ma'nosida kelgan so'zlarga oid bo'rtma rasmlar, tabiiy ob'yektlar, mulyajlar, o'yinchoqlar) predmetlarni taqdim etadi va o'quvchi esa nomi aytilgan predmetni ko'rsatishi kerak. Masalan, o'quvchi tana qismlariga oid so'zlar, ya'ni bosh, ko'z, qosh, barmoq kabilarni ko'rsatish so'ralganda o'z tana a'zolarini ko'rsatishi kerak.

Gaplarni tushunishga berilgan misollar, "Qizcha o'tiribdi", "O'quvchi o'tiribdi", "O'quvchi ovqatlanyapti", "O'quvchida mashina bor", "Qizcha sakradi" va sh.k.

Yuqoridagi topshiriqni muvaffaqiyatli bajargan o'quvchilarga murakkab gaplar aytiladi. Texnologiya negizida dizartriyali o'quvchilarning nutq mazmunini tushunishlari muayyan baholash mezonlariga muvofiq aniqlandi (qarang 2-ilova).

**Ekspressiv nutqni tekshirish metodikasi**

**Artikulyatsiya sohasini tekshiruvdan o'tkazish.** Logopedik amaliyotda artikulyatsiya apparati tuzilishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilar ham uchrashi qayd etilgan. Artikulyatsiya motorikasini tekshiruvdan o'tkazish mimik muskullarning holatini kuzatishdan boshlanadi. Ushbu kuzatish jarayonida o'quvchida giperkinezlarning (mimik muskullarning majburiy, zo'riqqan harakatlari), sinkneziyalarning (qo'shimcha bir vaqtni o'zida amalga oshiriladigan ixtiyorsiz harakatlar) mavjudligi, burun-lab burmalarining assimetrikligini aniqlash mumkin. Logoped artikulyatsiya apparatining tuzilishini o'rganishda mimika komponentlariga alohida ahamiyat berishi lozim (qarang 3-ilova).

Artikulyatsion apparat a'zolarining harakatchanligini tekshirishda lablar, til (statik mashqlar, dinamik mashqlar), pastki jag', yumshoq tanglay harakatchanligi faoliyatiga alohida ahamiyat berildi.

Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan o'quvchilar og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda artikulyatsion apparat a'zolarining harakatchanligini baholash mezonlarini ham aniqlash maqsadga muvofiqligi ma'lum bo'ldi.

**Tovushlar talaffuzini tekshirish.** Tovushlar talaffuzi holatini tekshirish bo'yicha topshiriqlar o'quvchining nutq tovushlarini amalga oshira olish qobiliyatini tekshirishga qaratilgan. Alohida tovushlarning talaffuz etilishini tahlil qilish tovushlar talaffuzining sifati va undagi kamchiliklar xususiyati haqida tasavvur hosil etadi. Bu esa differensial diagnostika uchun nihoyatda muhimdir.

O'quvchilarning tovushlar talaffuzini tekshirish quyidagi nutq tovushlari talaffuzini o'rganishni o'z ichiga oldi:

- 1) unli tovushlar: [a], [o], [u], [e], [i], [u];
- 2) sirg'aluvchi, shovqinli va affrikat tovushlar: [s], [z], [sh], [j], [ch];
- 3) sonor tovushlar: [r], [l], [m], [n];
- 4) til orqa tovushlari: [k], [g], [x];
- 5) chuqur til orqa tovushlar: [k], [g], [x];
- 6) jarangli va jarangsiz tovushlar: [p]- [b], [t]- [d], [k]- [g], [f]- [v], [s]- [z].

Tekshiruv natijalari muayyan holatlar bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, tovushlar talaffuzi holati aniq mezonlar asosida baholanadi (qarang 4-ilova).

**Murakkab bo'g'inli so'zlarni talaffuz qilishni tekshirish.**

Dizartriya o'quvchilarda so'zning bo'g'in tarkibini tekshirish bo'yicha berilgan topshiriqlar muayyan shartlar va baholash mezonlariga asoslandi (qarang 5-ilova).

**So'zning bo'g'in tarkibini tekshirishga e'tibor qaratildi.** Bunda quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Bo'g'inlarni talaffuz etish.
2. Turli bo'g'in tarkibiga ega so'zlarni talaffuz qilishni tekshirish: bir bo'g'inli so'zlar; ikki ochiq bo'g'inli so'zlar; ikki yopiq bo'g'inli so'zlar; ikki ochiq va yopiq bo'g'inli so'zlar; uch ochiq bo'g'inli so'zlar; uch yopiq bo'g'inli so'zlar; uch ochiq va yopiq bo'g'inli so'zlar; to'rt bo'g'inli so'zlar.

**Dizartriyali o'quvchilarning lug'at boyligi holatini tekshirish.** Texnologiyaning maqsadi dizartriyali o'quvchilarning lug'at boyligi holatini tekshirishga doir metodik ishlanmalarni tayyorlashdan iborat bo'lib, u quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

1. Predmetlarni nomlash:

ot so'z turkumiga oid so'zlar: do'ppi, tufli, piyola, avtobus, karam, nok, qaldirg'och, fil va sh.k.; predmet qismlari: choynak (qopqoq, jo'mragi), odam (bosh, qo'l, soch, burun, barmoq, oyoq) va sh.k.;

kasblar: shifokor, haydovchi, tarbiyachi, sotuvchi, duradgor va sh.k.;

2. Nutqda fe'llarning qo'llanishini aniqlash.

3. Predmet belgisini bildiruvchi so'zlarni nomlash.

4. Umumlashtiruvchi so'zlarni nomlash

5. So'zlarning zid ma'nosini ifodalovchi antonimlar.

**Nutqning grammatik tuzilishi holatini tekshirish dizartriyali o'quvchilar nutqining grammatik tuzimining holatini tekshirish uchun quyidagi vazifalar taklif etiladi:**

predmetli rasmlardan foydalangan holda birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlarni hosil qilish;

son va otlarni moslab ishlatish;

otlarning kichraytirish-erkalash shakllarini hosil qilish ;

otlardan sifat yasash;

kelishik qo'shimchalarini qo'llash;

ikkita predmet orasidagi ba'zi fazoviy muloqotdorlikni ifodalovchi so'zlarni (o'rin-joy otlari) qo'llay olish (masalan, "oldida", "orqasida" kabi). Texnologiya mazmunida lug'at boyligining holatini tekshirish (qarang 6-ilova) hamda nutqning grammatik tizimining holatini baholash mezonlari tavsiya etildi (qarang 7-ilova).

**Dizartriyali o'quvchilar bog'lanishli nutqining holatini tekshirish.** Ushbu texnologiyaning maqsadi eshittirilgan matn mazmunini so'zlab berish, voqeaband rasmlar asosida hikoya tuzish, taklif qilingan mavzu bo'yicha hikoya tuzishga doir mashqlar yordamida dizartriyali o'quvchilar bog'lanishli nutqining holatini tekshiruvdan iborat bo'lib, quyida bosqichlardan iborat:

1. O'qilgan matn ("Mushukcha", "Kuz") mazmunini so'zlab berish.

2. Voqeaband rasmlar asosida hikoya tuzish.

3. Taklif qilingan mavzu bo'yicha hikoya tuzish.

Voqeaband rasmlar asosida hikoya tuzishni tekshirish texnikasi foydalaniladigan gaplarning turlarini aniqlash uchun maxsus tanlangan rasmlardan foydalanishdan iborat. Bunday rasmlar asosida turli konstruksiyadagi gaplar tuzish mumkin. Masalan, sodda gap (O'quvchi yig'layapti), sodda yoyiq gap (Qiz qo'g'irchoqni cho'miltiryapti. Ona kitob o'qiyapti). Savollar yordamida yuqoridagi gaplarning tuzilishini murakkablashtirish mumkin (Qiz kitob o'qiyapti. Qanday qiz? Qanaqa kitob?). Murakkab gaplarni ikki yoki undan ortiq harakatlar tasvirlangan bo'rtma rasmlardan foydalanib tuzish mumkin.

Tekshirish vaqtida otlarni kelishiklarda turli olish ko'nikmasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchining mustaqil nutqida ko'makchi so'zlardan foydalanish ko'nikmasi, birlik

sondagi otlardan ko'plik sondagi otlar (otning ko'plik shaklini) yasay olishi tekshirildi. O'quvchilarga rasm (bo'rtma, siluetli) mazmunini aniqroq tushuntirish maqsadida yo'naltiruvchi savollar beriladi, ba'zi joylarda, mavhum ma'nolarni anglatgan so'zlarni tushuntirishda imo-ishoralardan, taktil harakatlardan foydalanildi, gap tuzishda u yoki bu tuzilmani qo'llash (masalan, Bobo qiziq kitobni o'qiyapti. Navbatchi sinf taxtasini artyapti. Salima oyisiga yordam berdi) talab qilinadi.

Taklif qilingan mavzu bo'yicha hikoya tuzishda o'quvchilarga tasavvurlari asosida hikoya tuzish taklif etiladi. Agar o'quvchi topshiriqni bajarishda qiyinchilikka duch kelsa, topshiriq soddalashtiriladi, ya'ni og'zaki yo'riqnoma beriladi.

O'quvchilar tomonidan berilgan javoblarni baholashda muayyan talablarni inobatga olish zarur. Bog'lanishli nutqining holatini baholash mezonlarini ham o'zida aks ettiradi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni qo'llashda defektolog o'quvchining nutqiy rivojlanishi haqidagi olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi, umumlashtiradi. Tekshiruvdan o'tkazish jarayonida olingan ma'lumotlar matematik-statistik usulda tahlil etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Архипова Е.Ф. Особенности доречевого периода у детей, страдающих церебральными параличами //Вопросы логопедии. М., 1978.
2. Архипова Е.Ф. Коррекционная работа с детьми с церебральным параличом: Доречевой период: Книга для логопеда. М., 1989.
3. Бабина Г.В. Речевые нарушения при детском церебральном параличе //Вопросы логопедии. М., 1978.
4. Бабенкова Р.Д., Орлова О.В. Организация лечебной физкультуры в школе для детей с церебральным параличом //Дефектология. 1983. № 3.
5. Бадалян Л.О. Невропатология. М., 1987.
6. Бадалян Л.О., Журба Л.Г., Тимонина О.В. Детский церебральный паралич. Киев, 1988.
7. Бернштейн Н.А. О построении движений. М., 1947.
8. Бортфельд С.А., Рогачева Е.И. Лечебная физкультура и массаж при ДЦП. М., 1986.
9. Василенко Н.А. Психопатологическая характеристика учащихся с церебральными параличами // Дефектология. 1980. №1. С. 12-16.
10. Винарская Е.Н., Пулатов А.М. Дизартрия и ее топиико-диагностическое значение в клинике очаговых поражений мозга. Ташкент, 1973.